

### DEHQON XO'JALIKLARINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHDA YERLARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Xudoyberdiyev Feruz Shamshodovich

*dotsent,*

Kamolov Jaxongir Ilxomovich

*Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti. tayanch doktorant.*

Respublikamiz agrar tarmog'ida olib borilayotgan islohotlar va ularning amaliyatga tadbiq etilishi, xususan, yer resurslaridan samarali foydalanish tamoyillariga alohida e'tibor qaratilishi o'zining ijobjiy natijalarini bermoqda. Bu borada mavjud sug'oriladigan va lalmi yerlardan unumli foydalanish, ularning tuproq unumdorligini saqlash, qayta tiklash va oshirish, ularni himoya qilish hamda maqsadli foydalanishni ta'minlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Hukumatimiz tomonidan qishloq xo'jaligida izchillik bilan o'tkazilayotgan islohotlar, xo'jalik yuritishning yangi shakllari - dehqon va dehqon xo'jaliklarini boshqarish tizimini yaratish hamda faoliyatini erkinlashtirish borasida qilinayotgan ishlar bevosita qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Yerga bo'lgan mulkchilik shakllarining o'zgarishi hisobiga halqimizning chinakam milliy boyligi, bebafo mulki, rizq-ro'zimiz manbai bo'lgan sug'oriladigan yerlarga bo'lgan e'tibor kuchaymoqda hamda shu bilan moddiy manfaatdorlikka erishilmoqda. Qishloq xo'jaligini isloh qilish bo'yicha aniq maqsadga qaratilgan ishlar olib borilmoqda. Buning natijasida keyingi yillarda qishloq xo'jaligi tubdan o'zgardi. Dehqon xo'jaliklari, o'z mohiyatiga ko'ra, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning asosiy shakliga, sohani barqaror va samarali rivojlantirishni ta'minlaydigan yetakchi kuchga aylandi. Eng muhimi, qishloqda haqiqiy mulkdor - yer egasi paydo bo'ldi. So'nggi yillarda dehqon xo'jaliklarining yer uchastkalaridan samarali foydalanish, izchil va aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, dehqonlar faoliyatini samaradorligi oshirilishining muhim omili bo'ldi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, barqaror dehqon xo'jaliklarini shakllantirish, ularning shaxsiy aylanma pul mablag'larini sezilarli darajada oshirish, yer va suv resurslaridan, shuningdek mineral o'g'itlar, qishloq xo'jalik texnikasi va boshqa resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash, shuningdek mehnatni yanada aniq tashkil etish imkonini yaratilib, dehqon xo'jaliklarining moddiy-texnika bazasi mustahkamlandi.

Dehqon xo'jaliklarining tasarrufidagi yer uchastkalaridan foydalanish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish yo'li bilan ular faoliyati samaradorligini yanada oshirish, dehqonlarni, yerning haqqoniy egalari sifatida xolis va oshkora tanlab olish, shu asosda yer va boshqa resurslardan oqilona foydalanish, kelgisida hosildorlikni oshirish hamda qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytirish, xo'jaliklarning moliyaviy ahvolini va qishloq aholisi daromadlari o'sishini yaxshilash maqsadida, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda faoliyat yuritayotgan dehqon xo'jaliklarining ishlab chiqarish, iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlarini chuqur tahlil qilish hamda ularning yer maydonlarini maqbul hajmlariga keltirish bo'yicha joylardagi ishchi guruhlar bilan ishlar olib borilib, dehqon xo'jaliklari tasarrufidagi yer uchastkalarining o'lchamlarini maqbullashtirish (optimallashtirish) ishlari yakunlandi.

O'zbekiston Respublikasining ma'muriy chegarasidagi umumiy yer maydoni 2020 yil 1 yanvar holatiga jami yerlar 44892,4 ming gektarni, shundan sug'oriladigan yerlar esa 4329 ming gektarni yoki umumiy yer maydonining 9,6 foizini tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Shavkat Miromonovich tomonlaridan 2017-yil 9-oktabrda qabul qilingan "Dehqon, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo'jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5199-son Farmon qishloq xo'jaligi tizimini yanada rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar eshigini olib berdi desak hech ham mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu Farmonda dehqon, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ularning yer uchastkalaridan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Bundan tashqari dehqon, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini yanada rivojlantirish ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning samarali tizmini yaratish ushbu sohada normativ-huquqiy bazani takomillashtirish masalalariga alohida to'xtalib o'tildi. Qolaversa bu farmonda ko'p tarmoqli dehqon xo'jaliklarini tashkil etish, ularning faoliyati tubdan takomillashtirish va ko'p tarmoqli dehqon xo'jaliklarida yerdan yanda samarali foydalanish borasida borasida ham so'z borgan. Ya'ni: Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni yanada rivojlantirish komissiyasining 2018-2021 yillarda dehqon xo'jaliklarini bosqichma bosqich ko'p tarmoqli dehqon xo'jaliklariga aylantirish tog'risidagi taklifiga rozilik berildi hamda 2022yilning 1-yanvaridan boshlab ko'p tarmoqli faoliyatni yo'lga qo'yagan dehqon xo'jaliklari bilan yer ijerasi shartnomalari qonun hujjatlariga muvofiq bekor qilinishi belgilab qo'yildi.

Dehqon xo'jaliklarining 2020-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, umumiy soni 84222 tani, shu jumladan ixtisosligi: paxta-g'allachilik 25597 ta, g'allachilik 6436 ta, chorvachilik 10133 ta, bog'dorchilik 21030 ta, uzumchilik 4864 ta, sabzavotchilik-polizchilik 4773 ta, tutchilik 743 ta hamda boshqa yo'nalishda 10646 tani tashkil kildi. Respublikamizda 2020-yil 1-yanvar holatiga ko'ra ,ularga ajratib berilgan umumiy yer maydoni 7331 ming gektarni, shu jumladan, ekin yerlar 3271,9 ming gektar, ko'p yillik daraxtzojarlar 273,5 ming gektar, bo'z yerlar 31 ming gektar, yaylov va pichanzorlar 3131,2 ming gektar hamda boshqa qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan yerlar 623,4 ming gektarni tashkil qildi. Dehqon xo'jaligi - o'ziga uzoq muddatli ijara berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi dehqon xo'jaligi a'zolarining birgalikdagi faoliyatiga asoslangan, yuridik shaxs huquqiga ega mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt. Endi yana bir muhim masala "Ko'p tarmoqli dehqon xo'jaligi" o'zi qanday tushuncha ekanligiga aniqlik kiritib olishimiz lozim. Odatta tarmoq so'zi iqtisodiy nuqtai-nazardan yagona bir soha doirasida amal qiladigan ammo, ishlab chiqarishning biron bir tugallangan, alohida mahsulot yetishtirish maqsadlariga bo'ysindirilgan yo'nalishiga aytildi. Bunda ko'pincha asosiy va qo'shimcha tarmoqlar ajratib olinadi. Masalan, qishloq xo'jaligi alohida soha hisoblanadigan bo'lsa, uning asosiy tarmoqlari sifatida o'simlikchilik va chorvachilik yo'nalishlari qabul qilingan. Har bir tarmoq o'z o'rnilida yana kichik tarmoqlarga bo'linib boradi. Ko'p tarmoqli dehqon xo'jaligi – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan birgalikda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash va sotish, sanoat ishlab chiqarishi, ishlarni bajarish,

xizmatlar ko'rsatish va faoliyatning qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turlari bilan shug'ullanuvchi dehqon xo'jaligi hisoblanadi.

Yurtboshimiz "Tomorqa - qo'shimcha daromad manbai!" degan shiorni qishloq aholisi orasida keng targ'ib qilish hamda yer egalarining kundalik hayotiga singdirish kerakligi haqida ham fikr yurutdilar bu farmonda. Ushbu farmonning yana bir quvonchli tomoni: Dehqonchilik madaniyatini oshirishda munosib hissa qo'shgan va ishlab chiqarishda yuksak natijalarga erishgan dehqon, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari taqdirlanadigan "Ilg'or dehqon", "Mehnatlash dehqon", va "Namunali tomarqachi" ko'krak nishonlari ta'sis etildi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Khamidov, F. R., Adizov, S. B., Karimov, E. Q., Maxmudov, M. M., & Branch, E. B. (2021). The Role of Peasant Farms and Homestead Lands in The Development of Agriculture. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 3, 5-8.
2. Shuhrat Bafoyevich, A. (2022). DEVELOPMENT OF WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF THE USE OF FARM LAND. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 1(11), 93-96. Retrieved from <http://interonconf.org/index.php/idre/article/view/280>
3. Bafoyevich, A. S. . (2022). LEGAL BASIS OF FARMERS ACTIVITY IN UZBEKISTAN AND ANALYSIS OF THE STAGE OF ITS DEVELOPMENT. "ONLINE - CONFERENCES" PLATFORM, 112-114. Retrieved from <http://papers.online-conferences.com/index.php/titfl/article/view/775>
4. Sayidov, F. K., & Akhrorov, A. K. (2022, March). THE ROLE AND IMPORTANCE OF LAND MONITORING IN THE USE OF LAND RESOURCES. In Euro-Asia Conferences (pp. 102-104).
5. Karimov E. Q., Akhrorov A. Q. The characteristics of irrigated meadow-swamp soils and their quality //IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. - IOP Publishing, 2023. - T. 1138. - №. 1. - C. 012033.
6. E Q Karimov and A Q Akhrorov 2023 IOP Conf. Ser.: Earth Environ. Sci. 1138 012033
7. Каримов, Э. К., Ахмадов, С. О. (2021). Изменение генезиса пустынно-песчаных почв при освоении. Поколение будущего: Взгляд молодых ученых-2021 (pp. 279-282)
8. Karimov, E., Akhrorov, A., & Sh, T. (2022). Natural Geographical Zoning of Agricultural Land. EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY, 2(2), 100-103.
9. Karimov E. K., Bobozhonov S. U., Mukhammadov K. M. Influence of the properties of irrigated soils on the productivity of the vobkent district EK Karimov // "Online-conferences" platform. - 2021. - C. 59-61.
10. Kodirivich, K. E. (2020). The condition and efficient use of agricultural land. Агропроцессинг, (SPECIAL).

11. Adizova, F. N., Mukhamadov, K. M., & Abdulloyev, Z. T. SS Saidov RESEARCH PARK Page 1 INTERNATIONAL JOURNAL ON ECONOMICS. FINANCE AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT, 55-59.
12. FN, A. (2022). YER MONITORINGI-ILMIY YO'NALISH SIFATIDA. (KONSEPSIYASI, METODOLOGIYASI, TEXNOLOGIYASI). PEDAGOG, 5(6), 624-629.
13. Adizova, F. N., Mukhamadov, K. M., Abdulloyev, Z. T., & Saidov, S. S. Further Development of Horticulture and Viticulture System in Uzbekistan. International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development, 4(5), 55-59.
14. Ахмадов, Б. О., & Пиримов, Ж. Ж. (2020). RESPUBLIKADA KO'CHMAS MULKKA BO'LGAN HUQUQLARNI DAVLAT RO'YXATIGA OLISH TIZIMINI YANADA SODDALASHTIRISH. ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ, (SPECIAL ISSUE).
15. Худойбердиев, Ф. Ш., Муҳамадов, Қ. М., Бобожонов, С. Ў., & Сайдов, С. С. (2022). ЧИҚИНДИ ПОЛИГОНЛАРНИНГ АТРОФИДАГИ ЭКИН ЕРЛАР, СУВ ҲАВЗАЛАРИ ВА АҲОЛИ ЯШАШ ЖОЙЛАРИГА ЗАРАРИНИ ЎРГАНИШ ҲАМДА БУ БОРАДАГИ ХОРИЖИЙ ТАЖРИБАЛАР ТАҲЛИЛИ. Eurasian Journal of Academic Research, 2(5), 764-775.
16. Худойбердиев, Ф. Ш., Бобожонов, С. Ў., & Мухамадов, Қ. М. Ў. (2022). МАРКАЗИЙ ОСИЁ МАМЛАКАТЛАРИДА ЧИҚИНДИ ОБЪЕКТЛАРИНИ БОШҚАРИШНИНГ БУГУНГИ ҲОЛАТИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(5), 967-976.
17. Sh, Khudoyberdiyev F. "Monitoring the Location of Cultivated Lands, Settlements and Water Basins in the Selection of Land for Location of Waste Landfills and Inclusion of Them in the Geo Database." Kresna Social Science and Humanities Research 8 (2022): 53-59.
18. Sh, Khudoyberdiyev F. "FORMATION OF A GEODATABASE OF WASTE LANDFILLS AND GEOVISUALIZATION BASED ON GEOINFORMATION TECHNOLOGIES." ONLINE-CONFERENCES PLATFORM. 2022.
19. Pirimov, J. J., Khudoyberdiyev, F. S., Muhamadov, K. M., & Axtamov, S. F. (2021). Modern Geographic Information Systems in Land Resource Management. Academic Journal of Digital Economics and Stability, 8, 66-69.
20. Хамидов, Ф., Адизов, Ш., & Очилова, М. (2022). Socio-economic aspects of land use in farming. Основные направления стратегии земельной реформы: проблемы и решения, 1(1), 141-157.
21. Adizov, S. B. (2020). PROSPECTS FOR THE USE OF HOMESTEAD LANDS IN UZBEKISTAN. In Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве (pp. 324-325).
22. Abdullo, A. (2022). Ochilova Muhayyo Shakar qizi.
23. Kamolov, J. I., Ochilova, M. S. K., & Akhrorov, A. (2022). THE ROLE OF HOMESTEAD LANDS IN THE DEVELOPMENT OF AGRICULTURE. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(5), 356-363.

24. Ro'zimov Surojbek Norbek, O. G., & Qizi, B. M. Y. (2023). QISHLOQ XO'JALIGI EKINLARINI JOYLASHTIRISHDA SUN'IY YO'LDOSH MA'LUMOTLARINING AHAMIYATI. *Ta'limgidoyilar*, 2(1), 198-202.
25. Usmonovna, N. N., & Qizi, B. M. Y. (2023). YER RESURSLARINI BOSHQARISHDA QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQARISHINI IXTISOSLASHTIRISH VA TARMOQLARINI TO'G'RI TAQSIMLASH. *Ta'limgidoyilar*, 2(1), 203-210.